

BUGUNGI KUN YOSH AVLOD KADRLARNING PEDAGOGIK BILIM
VA KO‘NIKMALARI BORASIDA

Boboradjabova Sevinch Bobomurod qizi

Turon Universiteti 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Ph.D.M. Xamrayeva

Abstract. *This following article provides information about the improvement of pedagogical skills and the theoretical and practical approach to education and upbringing of young students, as well as the improvement of pedagogical skills. Furthermore, the author gives information about some higher educational institutions and universities also thoughts about raising the level of the young specialists.*

Key words: *Pedagogue, staff, genius, intelligence, education, knowledge, potential, skills, facilities, virtue, specialist, technology.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada pedagogik mahoratni yuksaltirish hamda o'quvchi yoshlarga ta'lim va tarbiya berish nazariy va amaliy jihatdan yondashish, shuningdek pedagogik qobiliyatni yuksaltirish haqida so'z boradi. Ayrim oliy o'quv yurtlarida va institutlarda mutaxassis saviyasini oshirish borasida ham fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Pedagog, kadr, ijidkor, ziyo, tarbiya, bilim, salohiyat, ko'nikma, qulayliklar, fazilat, mutaxassis, texnologiya.*

Bugungi ilm-fan jadal rivojlangan davrda yoshlarga ko'p qulayliklar yaratilayotgani sababli, ilmiy yoshlarga bo'lgan talab oshib bormoqda. Yoshlar kelajak poydevori sanalgani bois, ta'limda ularning ijodkorligi va mahoratiga bo'lgan imkoniyatlar ko'paya borayotgani hech kimga sir emas. Chunki, bugungi kunda o'z kasbini mohir, istedodli va tajribali ustasi sanalmish har tomonlama mukammal kadrlarga bo'lgan talab ortmoqda.

Alisher Navoiy ijodida muallimlarga munosabat alohida berilgan. Uning fikricha, har bir inson o'ziga ta'lim va tarbiya bergan ustozini, o'qituvchisini umrbod hurmat qilishi va uni e'zozlashi kerak. O'qituvchi mehnatini har qanday xazina bilan o'lchab bo'lmaydi.

Haq yo'lida kim senga bir xarf o'rgatmish ranj ila

Aylamak bo'lmas ado, oning haqqin yuz ganj ila

Buyuk mutafakkir yosh avlod tarbiyasini har qanday tasodifiy, tarbiyasiga ishonib topshirib bo'lmasligini aytib, o'qituvchiga yuksak talablarni qo'yadi. Bolani tarbiyalash va unga bilim berish, uning qobiliyatini o'stirish



uchun nihoyatda savodli o‘qituvchi va mahoratli tarbiyali bo‘lishi kerak. A.Navoiy o‘qituvchini faqat dars beruvchi, bilim beruvchi deb bilmaydi, balki mahoratli tarbiyachi bo‘lishi lozim deb ilm va odobni birga olib borishni bu ikki jarayon hech qachon ajralmasligini ta’kidlab o‘tadi. Buyuk alloma o‘zining “Mahbub-ul qulub“ didaktik asarida o‘qituvchi xalq oldida obro‘ga, hurmat va izzatga sazovvor bo‘lishi kearkligini u xalq g‘ami bilan yashashini, xalqqa yordam beruvchi, xalq bilan birga bo‘lishi lozimligini aytadi. Nodon, mutassib, johil mudarrislarni tanqid qilib, mudarris olimlar orasidagi eng sara “qiyofali” kishi bo‘lishi, ya’ni vijdoni sof, ko‘ngilli, pok qalbli, insofli, karam-muruvvatli, odobli, vafoli kishining eng yaxshi va oliyjanob hislatlarini o‘zida aks ettiruvchi bo‘lishi kerak deydi. Ayniqsa, madrasalarda ta’lim-tarbiya bilan shug‘ullanuvchi mudarrislarga jiddiy talablarni qo‘yadi: “Mudarris kerakki, g‘arazi mansab bo‘lmasa va bilinmasa ilmni aytishga urunmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko‘rgazmasa va olg‘irlik uchun gap-so‘z va g‘avg‘o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo‘lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni unga bo‘sh o‘rin bo‘lmasa yaramaslikdan qo‘rqsa va nopoklikdan qochsa..... nainki o‘zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni qilishi mumkin, balki halol desa, qilmas ishlarni qilmoq undan sodir bo‘lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo‘lib qolsa, bu mudarris emas, yomon odatni tarqatuvchidir” . Demak, mudarris bilimli, fozil va donishmand bo‘lishi, kishilikning eng yaxshi fazilatlarini, o‘zida mujassamlashtirgan oliyjanob va kamtarin bo‘lishi, har qanday yaramas ishlardan holi va pok bo‘lishi, o‘z xulqi va odobi bilan boshqalarga namuna bo‘lishi lozim. Ayrim o‘rinda o‘qituvchi mehnatini eng murakkab va mashaqqatli ish ekanligini xolisona baholaydi: “Uning ishi odam qo‘lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashdan o‘zlik qilardi. U esa bir to‘da bolaga ilm va adab o‘rgatadi, ko‘rkim bunga nima etsin. Shunisi ham borki, u to‘dada fahm-farosati ozlar ham bo‘ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat qilsa qanday bo‘ladi. Har qanday bo‘lsa ham, yosh bolalarda uning haqqi ko‘pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa muallimga qulluq qilsa arziydir” [1;39/40].

Pedagog professor Komil Zaripov o‘qituvchining kasbiy mahorati mazmuni va mohiyatini ilg‘or o‘qituvchi, ijodkor o‘qituvchi va Novator o‘qituvchi timsolida asoslaydi [2;123].

Buyuk nemis pedagogi Adolf Diterverg o‘qituvchining doimiy ravishda fanlarni mutolaa qilish bilan shug‘ullanishi haqida gapirib, shunday degan: “O‘qituvchi muntazam ravjshta fan bilan shug‘ullanmog‘i darkor, aks holda u qurigan daraxt va toshga o‘xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera



olmaganidek kelajakda bunday o‘qituvchidan ham hech qanday natija kutib bo‘lmaydi”. Bizning fikrimizcha esa pedagoglar o‘z mutaxassislik dasmrslarini bitta teleset va taqdimot kabi jihozlar bilan o‘quvchilar onggiga singdirshlari mumkin. Biroq yoshlar o‘z kasbini ustasi bo‘lib turib ham yaxshi ta‘lim berolmasiligi ham uchrab turadi. Yosh bo‘lishiga qaramay o‘z kasbini chin qalbdan sevib ado etadigan yoshlar ham oramizda yo‘q emas albatta. O‘zbekistonda o‘qituvchi va murabbiy kadrlarning manaviy qiyofasiga, aqliy salohiyatiga hamda kasbiy mahoratiga nisbattan alohida mas'uliyat yuklangan [3;12].

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prizidenti I.A.Karimov quydagilarni ta'kidlagan. “Bizning yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifalarni ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o‘rnimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmatlari naqadar beqiyos ekanligi tasvvur qilamiz”. O‘qituvchilar uchun zamonaviy talablariga javob bera oladigan metodik va o‘quv qo‘llanmalar qo‘shimcha materillar hamda darsliklar yaratila boshlandi. Hozirgi kundagi global o‘zgarishlar, fan-texnika va axborot kommunikatsiya texnologilarining kun sayin rivojlanishi XXI asr o‘qituvchisidan pedagogik mahoratni, o‘tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni o‘z fani doirasi keng va mulohazli bo‘lishini talab qiladi. Ta‘lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilar hamda tarbiyachilar shakllanishining optimal darajada tashkil etish va barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g‘oyalar bilan boyitishni puxta bilish lozim. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “milliy dasturi” g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etish mamlakatimizda ta‘lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash, ta‘lim muassasalarida faoliyat olib borilayotgan o‘qituvchi va tarbiyachilarning ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ko‘p jihatdan bog‘liq [4;413].

Bilamizki, ustoz misli yonib turgan shamga o‘xshaydi. O‘zi yonib atrofga ilmi va odobi ila nur-ziyo tarqatadi. Oramizda barcha pedagogdir biroq o‘z sohasi bilan bog‘liq ayrim ma'lumotlarga qolaversa, yetuk darajaga ega emasligi ularning oyoqlariga bolta uradi. Bugungi kunda har bir soha vakillarining ma'lum til bilish darajasi, sertifikati bo‘lishi darkor, negaki, o‘z kasbini bilish darajasi bo‘lmagan o‘qituvchilar o‘quvchiga yetarlicha bilim berolmaydi. Darhaqiqat o‘z bilmagan bilimini boshqaga berolmaydi albatta. Qolaversa, pedagog o‘zidagi bilimini va o‘tiladigan mavzuni yetkazib berolmasa, o‘quvchilar o‘qituvchini oyoqosti qilishadi unga turli bachkana laqab qoyib masxara qilishadi. Odatda dars mobaynida shovqin suron qilib



boshqa darslarga ham xalaqit berishadi. Darhaqiqat o‘qituvchi bilimsiz va saviyasizligi tufayli o‘quvchilar o‘rtasida hurmatsiz bo‘lib qoladi. Hozirgi kunda o‘quvchilar o‘qituvchilarning bilimiga emas balki ularning kiyinishiga yurish-turishiga qarab muomala qiladilar. Kim qattiqo‘l va talabchan bo‘lsa ana o‘sha o‘qituvchi bilimi bo‘lmasa ham hurmat qilibgina qolmasdan va shubfan yuzasidan barcha vazifalar bajarilgan bo‘ladi. Har bir o‘qituvchi bolalar bilan chiqishuvchan va bola qalbidan joy olishninbilisa ular bilan har qanaqasiga ham shug‘ullansa, qolaversa eng ikkichi va bilmasvoy o‘qituvchilarni ham o‘z metodikasi va qo‘llanmalari bilan yetuk shaxs qilib tarbiyalay olish darajasida o‘zi ham salohiyatli va qobilyatli bo‘lishi lozim. Haqiqatdan ham bugungi kunda yoshlar juda hurmatsiz qo‘pol, telefonga mukkasidan ketib bog‘lanib qolgani sababli bilim olishga bo‘lgan qiziqishi sustlashgan. O‘qituvchining tanbeh va dakki berishi ularga erish tuyulmaydi ham turli oilada tarbiya topgan o‘quvchilar, o‘qituvchilar ozroq kechiksa derazadan sakrab ketib qolishadi darsda o‘qituvchi bilan tengma-teng gap tortishadi. Shunday bolalarni tarbiyalay olish hozirgi kunda dolzarb sanaladi. Qanday qilib dersiz? Buning uchun o‘quvchi bilan qo‘pol emas, ular bilan o‘zlari kabi muloqot qilish ularni dars jarayoniga qiziqtirish va ular bilan alohida, pedagogik va psixologigik shug‘ullanish zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, pedagogik mahoratni yuksaltirishda pedagoglar amaliyotda o‘z ustida betinim izlanishlar olib borishi,ko‘proq kitoblar mutolaa qilishi lozim. Negaki o‘qigan kitoblarni hamda olayotgan bilimlarni amaliyot orqali namoyish etadi va o‘zlariga bo‘lgan ishonchi bilan bir qatorda ilm saviyasi ham yanada ortadi. Bu orqali yusak pedagogik tafakkur talim beruvchining tarbiyalash jarayoniga jiddiy yondashuv orqali metodik bilimlarni samarali qo‘llay olish qobiliyati yuksalaveradi. Zero o‘qitish jarayonida pedagoglar muayyan shaxs sifatida shakillantiruvchi zaruriy bilimlar bilan ta‘minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ko‘nikmalarni ham olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

ADABIYOTLAR:

1. Navoiy A. “Mahbub-ul qulub”asarlar 15-Tom Toshkent fan 2005: 39-40-b.
2. Karimov I. “o‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz” 7-jild. T . O‘zbekiston 1999-yil 413-b.
3. Xoliqov A. O‘zbekiston respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, “Iqtisodiyot va moliya “2011-y,11-15-b.
4. Zaripov K. “O‘qituvchilar malakasini oshirishda maktab rahbarining roli” T o‘qituvchi, 1993-yil, 123-b.

